

Full Flight Simulator Airbus 320 trenajyor simulyatori - uchuvchilarning “ishonchli do‘sti”

2021 8 Noyabr

Joriy yilning noyabr oyida Uzbekistan Airways o‘quv-mashg‘ulot markazida Full Flight Simulator Airbus 320 trenajyori ishga tushirilganiga 6 yil bo‘ldi. Yillar davomida trenajyorda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Pokiston, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlardan 9000 dan ortiq mutaxassislar tayyorgarlikdan o‘tishdi. Mashg‘ulot majmuasi xizmatlariga bo‘lgan talab tobora ortib borayotganini ta’kidlab o‘tish joiz. Simulyatorning parvoz yaroqliligini ta’minlash Kanadaning uskunalar ishlab chiqaruvchi - “CAE” kompaniyasi ko‘magida “O‘quv-mashg‘ulot markazi” MCHJ xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yaqin vaqt ichida simulyatorning dasturiy ta’minotini to‘liq yangilash rejalashtirilmoqda. Eslatib o‘tamiz, 7000CAE XR Kanada kompaniyasining eng yangi zamonaviy kompyuter ta’minoti, harakatchanlik va vizualizatsiya tizimlari bilan jihozlangan. Bu A320 havo kemasi kabinasining deyarli aniq nusxasi bo‘lib, olti darajali erkin harakatlanuvchi platformaga o‘rnatilgan.

“O‘quv-mashg‘ulot markazi” MCHJ jamoasi mashg‘ulotlarda har doim ishonchli hamkorlar va yangi mijozlarni ko‘rishdan xursand, markaz simulyatorlaridan foydalanish aviakompaniyalarga foyda keltirishi va parvozlar xavfsizligini oshirish uchun hamma sharoitlarni yaratishni o‘ziga maqsad qilgan.

Telegram: t.me/uzbekistanairways